

## Ko'chat-kelajak daraxti

Suv keltirgan va ko'chat ekib bog' yaratgan insonlar xalqimizda azaldan ulug'lanib kelingan. Bahor kelishi bilan har bir inson yerga ishlov berib nimadir ekishga ishtiyoq sezadi. Ayniqsa, Navro'z bayrami arafasidagi umumxalq hasharlarida turli daraxt va gul ko'chatlarini o'tqazish yaxshi an'anaga aylangan.

2019 yil 31 mart kuni Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.Sultanov boshchiligida Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i M.Sarimsaqov, ilmiy bo'lim xodimlari N.Shaymanov, O.Abdisamatov, G'.G'oziyev, J.Do'stov, doktorantlar I.O'razbayev, Sh.Mardiyev va GM fakulteti "I va M" kafedrasida assistenti E.Malikov hamda 10 nafar talabalar TIQXMMI ilmiy o'quv markazida tashkil etilgan ko'chat ekish tadbirlarida faol ishtirok etishdi.

Mevali (olma) daraxtlarning ko'chatlari pakana payvandtag - past bo'lib o'suvchi turlariga mansub bo'lib qator qilib ekilganda 4-3 metr sxemada ekildi. Ko'chatlarga mehr berib sifatli ekilsa, ular yaxshi o'sib-rivojlanib, ko'p yillar mo'l hosil beradi.

Bu esa olimlarimiz, ilmiy tadqiqotchilarimizga mislsiz rag'bat berish barobarida, zimmamizga tinimsiz izlanish, yoshlarni ilm-fan yo'nalishiga faol jalb qilish, ularga haqiqiy bilim berishdek sharaflilik va mas'uliyatli vazifani ham yukladi. Zero, sharqning buyuk mutafakkiri Konfutsiy ham: "Agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo'lsang, bug'doy ek, o'n yil boqmoqchi bo'lsang daraxt ek, agar asrlar davomida boqmoqchi bo'lsang, bilim, ilm ek", - deya bejiz aytmagan.

Inson o'zining mehnati va oilasi bilan baxtli bo'lsa, jamiyatda munosib o'rin egallaydi. Bu mamnunlik, shukronalik qalbimizni aslo tark etmasin, yurtimizning ravnaqi, taraqqiyoti yo'lidagi qilayotgan ezgu ishlarimizda, ilmiy izlanishlarimizda yangidan-yangi muvaffaqiyatlar hamisha yor bo'laversin!



**Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi sektor mudiri N.Shaymanov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**